

LIRIK KECHINMA TABIATI VA IFODASI
Bobobekova G., O'zbek filologiyasi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

She'riyat – bir dunyo. Uning markazida inson yetakchilik qiladi. She'ring ifodasi; uslubi kun sayin o'zgarmoqda. Yangicha shakl orqali insoniy kechinmalar, his-tuyg'ular, ruhiyat rang-barangligini ifodalash keng tus olmoqda. Ichamlikka intilish va qisqa satrilarda inson kayfiyati, ruhiyatini ifoda etish hozirgi zamon she'riyatining o'zgacha ko'rinish olganligidan dalolat beradi. Bunday o'zgarishlarni yapon adibi Yasunari Kavabata shunday izohlaydi: "Men o'z tajribamdan shuni yaxshi bilamanki, vaqt o'tishi bilan qarashlar o'zgaradi, o'tmishdagi va hozirgi yozuvchilar haqidagi, xususan, o'z yozganlarning haqidagi fikrlar o'zgaradi. Ba'zan bunday o'zgarishlar hayron qolarli tarzda kechsa, ba'zan sezilar-sezilmas holda o'tadi"¹. Bu holat o'zbek she'riyatida ham kuzatilmoqda. Ayniqsa, inson deb atalgan olam tadqiqi, uning sirli, sinoatli qalbi, fikri, o'y-xayollari, o'zini anglashga xizmat qiluvchi badiiy ijod mahsullari ko'plab yaratilmoqda. Bu o'zgarishlar Umarali Normatov ta'kidlaganidek "zamindagi ulkan siljishlar bilan dunyo yuzini ko'rdi"². Xususan, lirik qahramon kechinmasi, she'riyatdagi lirik kechinma tushunchalari inson qalbining nozik nuqtalari tasvirida o'zgacha kayfiyat bilan ifodalanmoqda. Bilamizki, lirik kechinma atamasi badiiy adabiyotda XX asrning 20-yillaridan ishlatila boshlangan. Bu so'z dastlab inson tuyg'usi, o'ylari ma'nosida qo'llangan. Inson o'yi, xayoloti juda jumboqli. Ruhshunos Z.Freyd ta'biri bilan aytganda, "tuyg'u, kechinmalarni insonning o'zi ham bilmay, anglab yetmay bu olamni tark etishi mumkin ekan"³. Ijodkor shoirlarimiz esa bu masalani o'z salohiyatidan kelib chiqqan holda tadqiq etmoqdalar.

Poetik asar asosini lirik kechinma tashkil etadi. Chunki kuzatishlarda ham she'r yaratilishida tuyg'u va kechinma asosiy o'rinni tutishi aniqlangan. Lirik kechinma o'z tabiatidan kelib chiqib, ko'proq she'ring mazmuni, hissiy bo'yog'iga ta'sir qiladi. Lirik kechinma obraz, tuyg'u, o'y-xayol orqali gavdalanadi. "Poetik asardagi obrazlarni kashf qilish esa shu matnning ma'no mag'zini chaqish demakdir"⁴. Bu esa tahlilning me'yorga yetganligidan dalolat beradi.

Hozirgi zamon o'zbek she'riyatida lirik kechinma turli vositalar orqali ifodalanmoqda. Masalan, poetik obrazlar, peyzaj tasviri, ohang, poetik ko'chimlar va hokazo. Bu usullarning birortasini bir-biridan ustun qo'yish mumkin emas. Chunki ularning har biri lirik kechinma ifodasida o'z o'miga ega. Ular birgalikda yaxlitlanib lirik qahramon kechinmasini yaratishga xizmat qiladi. Bu holatni hozirgi zamon she'riyati misolida kuzatish mumkin.

Lirik qahramon kechinmasi peyzaj tasviri orqali ham ifodalanadi. Tabiat lirikasida bosh tasvir borliq hodisalaridan iborat. Shoir hodisalarni chizish bilan birga o'zining tabiatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda uning lirik qahramon ruhiy olamini ochib beruvchi omil sifatida ham qo'llaydi. Tabiat tasvirlari lirik qahramon ichki kechinmalarini ko'rsatishda badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi.

¹Normatov U. Ijod sehri. – T., Sharq. 2007. – B. 254.

²O'sha kitob. – B. 254.

³O'sha kitob. – B. 317.

⁴Mirhaydarov X., Mirhaydarova N. Barmoq tizimi ta'limi. – T., 2010. – B. 14-15.

Ikrom Otamurodning “Yomg’irdan so’ng” deya boshlanuvchi she’rida tabiat hodisasi bo’lgan yomg’irning yog’ishi, undan so’ng bo’ladigan o’zgarishlar tasvirlangan:

Yomg’irdan so’ng oyning sochini
erkalab silaydi nasimlar.
Sumanbarday ketar ochilib,
yomg’irdan so’ng osmon tarsillab.

Bu misralar orqali kuzatuvchanlik va badiiy tafakkur namoyon bo’ladi. Keyingi misralarda yomg’irdan so’ng “tungi osmondagi yulduzlarning nozli, ishvali chaqnashi”, “olis-olislardan soylar tovushining eshitilishi”, “yastangan bo’zlar qo’zigullar terishi” tasvirlanadi. Shoirming bu kabi peyzaj tasvirlarini keltirishdan ko’zlagan asosiy maqsadi quyidagi bandda oydinlashadi:

Yomg’irdan so’ng tarqalar xilma-xil
tashvishlar, siralar, tangliklar.

Yomg’irdan so’ng moviy, yam-yashil
ruhimda uyg’onar kengliklar¹.

Demak, yomg’irdan so’ng yengil tortgan tabiat, osmon kabi lirik qahramon ko’ngli ham o’z qalbidagi g’uborlari, dardlari, tashvishlaridan “yomg’irdan so’ng” taskin topadi. “Peyzaj inson hayoti bilan, uning his-tuyg’ulari bilan uyg’un holda beriladi”². Lirik qahramon his-tuyg’ularining ko’tarinkiligi she’ming o’ynoqi ritmini hosil qiladi:

Novdalar tanida mo’g’jalar durkun –
dunyoni sog’inib, lab ochmoqqa shay.
Naysonlar shodasi – mavjlangan to’lqin,
qaldirg’ochlar ko’kda charx urar, hay-hay³.

Bu misralarda ifodalangan tabiat manzarasi uyg’onish fasli-ko’klam tasviridir. Bu fasl tabiatga qanday quvonch baxsh etsa lirik qahramon ruhiyatiga ham shunday o’zgacha ko’tarinkilik baxsh etmoqda: bahorning “qish ulg’aytgan armonlarni to’zg’itib”, “ko’ngilda ko’klam hidi”ni olib kirishi, “umidlarning yo’lga shoshilib chiqishi” inson ruhiyatining ijobiy kayfiyatidan dalolat beradi. Ko’p ijodkorlarda ko’ngildagi maxzunlik, umidsizlik tuyg’usining ifodasini yaratishda tun tasviridan foydalanish ustunlik qiladi:

Zulmat kecha.
Tinmaydi yomg’ir,
yaproqlar kabi titrar vujudim⁴.

Tun tasvirining quyuqligi inson ruhiyatidagi tundlikni bo’rttirib ifodalagan. Tinmay yog’ayotgan yomg’irdan silkinayotgan yaproqlar kabi lirik qahramonning vujudi ham titroqda. U kunni intiqlik bilan kutmoqda. Zora kun, oftob ko’nglini charog’on qilsa...

Kecha ... Ko’rinadi na oy, na yulduz,

¹Ikrom Otamurod. Tag’azzul. – T., Sharq, 2008. – B.8.

²Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., O’qituvchi, 1979. – B.29.

³Ikrom Otamurod. Tag’azzul. – T., Sharq, 2008. – B.42.

⁴Tursun Ali. Oy yaprog’i. – T., Sharq, 2008. – B.39.

shamol izillaydi chimdib yuzimni.
Daraxtlar soch yoyib shivirlar ma'yus,
yo'qotib qo'yganman tamom o'zimni¹.

Bu misralarda ham tun lirik qahramon ruhiyatidagi tundlikdan xabar beradi. U orzulardan mosuvo, o'zini, o'zligini topolmay sarson. Inson ruhiyatidagi bunday holat tabiat bilan uyg'unlashgan.

She'riyatda kuz fasli ham o'z majoziy ma'nosiga ega. U inson umrining keksalik davriga qiyos qilinadi:

kuz kelyapti
kuz
hali zamon
sarin shabbodalar esa boshlaydi
yomg'ir yog'adi sovuq va sovuq²

Shoir bu misralarida kuz manzarasini ifodalash orqali inson umrining bu faslida odam mushohadakorlik bilan o'tmishni tahlil qilishi, hayotdan asta-sekinlik bilan soviy boshlashi haqida fikr yuritadi:

boshidan muzdek suv sepilgan odamdek
bir seskanib o'ziga keladi hali
hali biz hammadan soviy boshlaymiz
mushohada qilib qaynoq o'tmishni

Shoir shu bilan birga o'limni, ya'ni inson umrining poyonini "yaproqlarning so'nggi qo'shig'i" deya obrazli holda tasvirlaydi. Quyidagi she'rda esa lirik qahramonning behalovatlik, loqaydlik holati aks ettirilgan:

Ko'kdan yulduz boqar besitam,
Tong kechikib oqarar beruh.
Beso'naqay daraxtlarning ham

Jon-jahdidan o'tadi sovuq³.

Bir qarashda "yulduzlarning besitam boqishi", "beruh tong", "beso'naqay daraxtlardan sovuq o'tishi" oddiy holdek tuyuladi. Chuqurroq mushohada qilinsa bu holatlarning loqaydlik asorati ekanligi namoyon bo'ladi. Bu albatta lirik qahramon kayfiyatidagi salbiy o'zgarish natijasidir.

Bu kuzatishlardan ko'rinadiki, peyzaj tasviri ham inson, ham lirik qahramonning qalb quvonchlarini, ko'tarinki ruh kayfiyatini, tashvishlarini, ruhiyatdagi nozik nuqtalarni baholashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon she'riyatida ruhiyat manzaralarini turlicha shaklda, turlicha mazmunda uchratish mumkin. Ularning she'riyatdagi badiiy talqini lirik kechinma deyiladi. Bu turlicha bo'lib, badiiy adabiyotda endigina shakllangani yo'q. Hozirgacha bo'lgan davr mobaynida lirik kechinmaning go'zal namunalarini yaratilgan. Lirik kechinma ifodasi, tabiatini o'rganish adabiyotimizning muhim yo'nalishlaridan biridir. Xususan, yuqorida keltirilgan tahlillardan

¹O'sha kitob. – B.39.

²Ulug'bek Hamdam.Seni kutdim. - T.,Fan.2007. – B.160.

³Xosiyat Rustamova. Devor. – T.,G'ulom.2006. – B.53.

ko'rinadiki, lirik kechinma tushunchasi hozirgi zamon she'riyati ijodkorlarida yangicha shakl va mazmun kasb etgan. "Yangi shakl va ifoda zo'r berish bilan emas, balki dunyoqarashdagi, olamni idrok etishdagi yangarish bilan badiiy tafakkur tarzimizdagi, didimizdagi yangilanish bilan, demakki, ijtimoiy – tarixiy, ma'naviy – psixologik zamindagi ulkan siljishlar bilan dunyo yuzini ko'radi"¹. Hozirgi kunga qadar lirik kechinmaning ifodasida turli usullar shakllangan. Masalan, poetik obrazlar, kechinma obrazi, yetakchi obrazlar, peyzaj, ohang kabilar.

Tahlillar davomida uslublarning aralash holda qo'llanganligining guvohi bo'ldik. Ayniqsa, bu holat lirik kechinma yetakchi va kechinma obrazlari yordamida yaratilganda ko'p kuzatildi. Shu bilan birga ohangdor ritm, shakliy xilma-xillik ham lirik kechinma ifodasida ijobiy ahamiyat kasb etishi ko'zga tashlandi. Bu usullar hozirgi zamon she'riyatining har bir ijodkorida turlicha qo'llangan. Ularni X.Rustamova, Abduvali Qutbiddin, I.Otamurod, U.Hamdam kabi ijodkorlar misolida kuzatish mumkin.